

TA'LIM JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNING SAMARALI YECHIMLARI

Otajanova Nafosat,

KDPI Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

otajanovanafosat7@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18639866>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida yuzaga keladigan konfliktlarning mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari hamda konfliktli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirokida olib borilib, so'rovnoma va kuzatish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, nizoli vaziyatlarga to'g'ri yondashuv, pedagog va o'quvchilar o'rtasida sog'lom muloqotni shakllantirish, jamoa bilan ishlash jarayonida mojarolarning oldini olish hamda konfliktlarni samarali yo'l bilan hal etish yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: konfliktlar, nizoli vaziyatlar, sabablar, pedagog va o'quvchilar, boshqarish usullari, yechim topish, tadqiqot o'tkazish, so'rovnoma, kuzatish va tahlil qilish, konfliktlarni oldini olish.

Аннотация. В данной статье на основе исследования анализируется природа конфликтов, возникающих в образовательном процессе, их причины и методы эффективного разрешения конфликтных ситуаций. Исследование проводилось с участием школьников и использовало методы анкетирования и наблюдения. Также рассматриваются вопросы правильного подхода к конфликтным ситуациям, формирования здоровой коммуникации между учителями и учениками, предотвращения конфликтов в процессе работы в команде и конструктивного разрешения конфликтов.

Ключевые слова: конфликты, конфликтные ситуации, причины, учителя и ученики, методы управления, поиск решений, проведение исследований, анкетирование, наблюдение и анализ, предотвращение конфликтов.

Abstract. This article analyzes the nature of conflicts that arise in the educational process, their causes, and methods for properly managing conflict situations using research. The research was conducted with the participation of schoolchildren and used questionnaire and observation methods. It also covers the correct approach to conflict situations, the formation of healthy communication between teachers and students, the prevention of conflicts in the process of working with a team, and the constructive resolution of conflicts.

Key words: conflicts, conflict situations, causes, teachers and students, management methods, finding solutions, conducting research, questionnaires, observation and analysis, conflict prevention.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlar ushbu munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, ular noto'g'ri boshqarilganda o'quvchilarning psixologik holatiga, o'quv motivatsiyasiga va dars o'zlashtirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, konfliktlar to'g'ri va konstruktiv yondashuv asosida boshqarish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda turli tushunarsiz vaziyatlar, bir-birini tushunmaslik va boshqa tushunmovchiliklar natijasida konfliktli vaziyatlar yuzaga kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Konfliktlar o'z vaqtida va to'g'ri boshqarilmasa, ta'lim jarayonining

samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida konfliktlarning kelib chiqish sabablari, ularni boshqarish usullari hamda pedagogning ushbu jarayondagi roli muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada maktab ta'limi jarayonida yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlar tadqiqot asosida o'rganildi. Ushbu maqolaning maqsadi boshlang'ich ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni konstruktiv hal etishning samarali pedagogik yo'llarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot vazifalariga konflikt turlarini tahlil qilish, ularning sabablari va pedagogning nizoli vaziyatlardagi rolini o'rganish kiradi.

Adabiyotlar tahlili. Psixologiyada konflikt tushunchasi shaxslar yoki guruhlar o'rtasida manfaatlar, ehtiyojlar, qarashlar va maqsadlarning to'qnashuvi sifatida talqin etiladi. Mashhur psixolog K.Levin konfliktni "Shaxsning ichki yoki tashqi muhit bilan bo'lgan ziddiyati natijasida yuzaga keladigan holat", – deb izohlaydi. Uning fikricha, konfliktlar shaxs rivojlanishining muhim omili bo'lib, to'g'ri boshqarilganda ijobiy natijalarga olib keladi. A.Maslou ta'kidlaganidek, "Shaxsning asosiy ehtiyojlari qondirilmaganda, u nizoli vaziyatlarga moyil bo'ladi". Ta'lim jarayonida bu holat o'quvchilarning baholanishdan noroziligi, tengdoshlar orasida o'z o'rnini topa olmasligi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Mashhur psixolog Z.Freyd konfliktlarni shaxs ichidagi ziddiyatlar bilan bog'lab izohlaydi. Uning fikricha, "Ichki emotsional bosim va nazoratning yetishmasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning kuchayishiga olib keladi". Kognitiv psixologiya vakili J.Piajening nazariyasiga ko'ra, bolalar tafakkuri rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli, ular vaziyatlarni subyektiv baholaydi. Bu esa oddiy holatlarning ham nizoli vaziyatga aylanishiga sabab bo'lishi mumkin. L.S.Vygotskiy esa konfliktlarni ijtimoiy rivojlanish jarayonining muhim omili sifatida baholaydi. Unga ko'ra, to'g'ri tashkil etilgan muloqot va kattalar ko'magida konfliktli vaziyatlar bolaning tajribasini boyitadi.

Pedagogika sohasida esa konfliktlar ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shuningdek, V.A.Slastyonin pedagogik konfliktlarning oldini olishda pedagogning kasbiy mahorati, muloqot madaniyati va empatiya qobiliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagog o'quvchini tushuna olishi, uning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi orqali nizoli vaziyatlarning oldini olishi mumkin. Ta'lim jarayonida konfliktlar ko'pincha o'quvchilar o'rtasida yoki pedagog va o'quvchi, pedagog va ota-ona, maktab va ota-ona, pedagog va maktab o'rtasida yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarning kelib chiqishiga o'zaro kichik muammolar, bir-birini tushunmaslik, baholash jarayonidagi noroziliklar, o'zaro hurmat va muloqot madaniyatining yetishmasligi sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot jarayonida ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish hamda konfliktlarni samarali hal etish imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida

quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. O'tkazilgan kuzatuvlar va so'rovnoma natijalari 3-sinf o'quvchilari o'rtasida konfliktli vaziyatlarning tez-tez uchrab turishini ko'rsatdi, ammo ularning aksariyati jiddiy tus olmay, tezda bartaraf etiladi.

Kuzatish metodi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonida, tanaffus vaqtida va sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi xulq-atvori, o'zaro muloqoti hamda nizoli vaziyatlarga bo'lgan munosabati tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda kuzatildi. Kuzatish jarayonida o'quvchilarning emotsional holati, o'zini tutishi va konfliktlarga nisbatan reaksiyalari qayd etildi.

So'rovnoma (anketa) metodi – o'quvchilarning konfliktli vaziyatlarga bo'lgan subyektiv munosabatini aniqlash, ularning nizoli holatlardagi xulq-atvorini baholash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan savollar asosida so'rovnoma o'tkazildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinib, savollar sodda, tushunarli va ko'rgazmali shaklda tuzildi.

Tahlil va umumlashtirish metodi – kuzatish va so'rovnoma natijasida to'plangan ma'lumotlar tizimlashtirildi, sifat jihatidan tahlil qilindi hamda umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida ta'lim jarayonida yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlar bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. Nazariy qarashlar konfliktlar shaxs rivojlanishining tabiiy bosqichi bo'lib, ta'lim jarayonida ularni to'g'ri pedagogik yondashuv asosida boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik nuqtayi nazardan konfliktlar faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonida muhim tarbiyaviy imkoniyatlarga ega jarayon sifatida qaraladi. Konfliktlarni to'g'ri boshqarish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, o'z fikrini ifodlay olish, nutqiy ma'daniyat kabi ko'nikmalari shakllantiriladi.

Konflikt (lotincha "conflictus" – to'qnashuv) tushunchasi asosan pedagogika va psixologiyada uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinadi. Ko'plab tadqiqotchilar ta'lim jarayonidagi nizolarni tasniflash va ularni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Jumladan, L.A.Petrovskaya konfliktlarni muloqot subyektlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar natijasi sifatida ko'rsatar ekan, ularni **konstruktiv** (rivojlantiruvchi) va **destruktiv** (buzuvchi) turlarga ajratadi. Pedagogik amaliyotda bizning maqsadimiz destruktiv konfliktlarning oldini olish va mavjudlarini konstruktiv yo'l bilan hal etishdan iboratdir.

Vitagen ta'lim – shaxsning hayotiy tajribasini dolzarblashtirishga qaratilgan o'qitish tizimi bo'lib, uning intellektual-ruhiy quvvatlaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanishni nazarda tutadi.

V.M.Afonkovaning tadqiqotlarida pedagogik konfliktlarning quyidagi asosiy sabablari ko'rsatiladi:

1. Munosabatlar xarakteridagi ziddiyatlar: Pedagog va o'quvchi shaxsiyatining mos kelmasligi, o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatilmasligi.

2. Faoliyat xarakteridagi ziddiyatlar: Darslarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, baholashdagi tushunmovchiliklar.

3. Xulq-atvor xarakteridagi ziddiyatlar: Tartib-intizomga rioya qilmaslik, o'quvchilarning maktab qoidalariga bo'ysunmasligi.

Xorijiy tajribada ta'lim jarayonidagi konfliktlarni boshqarish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni samarali boshqarish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida konfliktlarni oldini olish va ularni konstruktiv yo'l bilan hal etish bo'yicha samarali pedagogik mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ushbu tajribalarni o'rganish va tahlil qilish milliy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimida konfliktlarni boshqarishning asosiy tamoyili ochiq muloqot va o'quvchi shaxsiga hurmat bilan yondashishdan iborat. Boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etish, muammoni so'z orqali hal qilish ko'nikmalari o'rgatiladi. Pedagoglar nizoli vaziyatlarda jazolashdan ko'ra, bolalar bilan suhbatlashish, ularni tinglash va muammoning sabablarini birgalikda tahlil qilishga ustuvor ahamiyat beradilar. Natijada konfliktlar o'quvchi shaxsining ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yaponiya maktablarida esa konfliktlarni oldini olish jamoaviy mas'uliyat va intizomni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar kichik yoshdan boshlab jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishga o'rgatiladi. Sinfda yuzaga kelgan nizoli vaziyatlar umumiy muhokama qilinib, har bir o'quvchi o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etadi. Bu yondashuv bolalarda o'zini nazorat qilish, sabr-toqat va murosaga kelish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimida esa konfliktlarni boshqarishda "peer mediation" (tengdoshlar vositachiligi) tizimi keng qo'llaniladi. Ushbu tizimda maxsus tayyorlangan o'quvchilar tengdoshlari o'rtasidagi nizolarni hal etishda vositachi sifatida ishtirok etadi. Bu jarayonda pedagog nazoratchi rolini bajaradi. Ushbu tajriba o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muloqot madaniyati va mas'uliyat hissini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonidagi konfliktlarni samarali boshqarish pedagogning shaxsiy yondashuvi, o'quvchilar bilan ochiq muloqot o'rnatish va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Yuqorida tahlil qilingan xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan konfliktlarni samarali boshqarish, avvalo, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi ochiq va ishonchli muloqotga asoslanadi. Finlyandiya, Yaponiya va AQSh ta'lim tizimlarida konfliktlar jazolash vositasi sifatida emas, balki tarbiyaviy imkoniyat sifatida qaraladi.

Ushbu yondashuvlar o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, o'zini tuta bilish va muhosaga kelish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish madaniyatini shakllantirish, sinf jamoasida sog'lom psixologik muhitni yaratishi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Mazkur maqola doirasidagi Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahridagi 11-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchilari ishtirokida tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida va ular bilan pedagog o'rtasida yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlarning turlarini, kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda ularni konstruktiv hal etish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Kuzatish: O'quvchilarning dars jarayonida, tanaffus paytida va sinfdan tashqari tadbirlardagi o'zaro muloqotlarini kuzatish.

So'rovnoma (anketa): O'quvchilarning konfliktlarga bo'lgan subyektiv munosabatini va ularning xulq-atvor ko'rinishlarini aniqlash.

Tahlil va umumlashtirish: Olingan ma'lumotlarni statistik va sifat jihatidan tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish.

Tadqiqotda jami 30 nafar 3-sinf o'quvchisi ishtirok etdi. Boshlang'ich sinf bolalarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, so'rovnoma savollari sodda, tushunarli tilda va ko'pincha rasmlar (smayliklar) yordamida tuzildi.

So'rovnoma namunasi ("Konfliktlarni hal etish usullari")

Hurmatli o'quvchi! Quyidagi savollarga o'zingizning shaxsiy fikringiz asosida javob bering. To'g'ri yoki noto'g'ri javob yo'q, faqat sizning fikringiz muhim.

1. Darsga kech qoldingiz. Muallim sinfga kirishingizga ruxsat bermayapti.

A) Eshik oldida turib olib, kirishga talab qilaman.

B) Muallimning qaroriga bo'ysunib, keyingi darsni kutaman.

C) Kech qolganim sababini tushuntirib, kirishga muloyimlik bilan ruxsat so'rayman.

D) Uyga ketaman.

2. Sizdan oldinroq bir do'stingiz o'zi xohlagan kitobni kutubxonadan olib bo'lgan.

Bu kitob sizga juda kerak edi.

A) Do'stinga kitobni darhol qaytarishini aytib, janjal qilaman.

B) Kutubxonachi ustozga shikoyat qilaman.

C) Do'stimdan kitobni qachon tugatishini so'rayman va navbat kutishga

D) Boshqa kitobni olib, bu haqida unutam.

3. Sinfdoshingiz tanaffusda ovqatingizni yeb qo'yganini ko'rdingiz.

A) Unga baqirib, nima uchun bunday qilganini so'rayman.

B) Muallimga aytaman va uning ovqatini ham yeb qo'yaman.

C) Uni chetga chaqirib, nima uchun ruxsatsiz olganini so'rayman va boshqa qilmasligini so'rayman.

D) Keyingi safar ehtiyot bo'lish uchun indamayman.

(Ushbu so'rovnoma namuna sifatida keltirildi)

Konfliktlarning sabablari: Boshlang'ich sinflarda nizolarning eng asosiy sababi shaxsiy buyumlarni (ruchka, daftar, kitob, o'yinchoq) talashish (35%) va o'yin qoidalari bo'yicha kelishmovchiliklar (45%) ekanligi aniqlandi. Baholash yuzasidan konfliktlar kam uchradi (10%).

Konfliktlarni hal qilish usullari: So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 40% tortishuvli vaziyatlarda "muloqot" (C varianti, gaplashish) yo'lini tanlashga moyilligini bildirdi. 30% "kattalarga aytish" (muallimga murojaat qilish) orqali yechim izlaydi. Afsuski, 20% holatda "janjal" (A varianti) yoki "qochish/e'tiborsizlik" (D varianti) holatlari qo'llaniladi.

Pedagogning nizoli vaziyatdagi roli: Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, pedagogning aralashuvi bilan hal qilingan konfliktlarning samaradorligi yuqori. O'qituvchining adolatli yechim topishi va o'quvchilarni murosaga chaqirishi ijobiy natija bergan.

Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida konfliktlarni muloqot orqali hal etish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishini ko'rsatdi, hatto erta yoshdanoq bolalarda konfliktlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ular ko'pincha vaziyatni mustaqil hal qilishga urinadilar, ammo muloqot madaniyatining yetishmasligi sababli ba'zan destruktiv usullarga (baqirish, tortishish, urishish) murojaat qilishadi.

Konfliktlarni boshqarish bo'yicha pedagogik tavsiyalar va amaliy ishlar.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, 11-maktabning 3-sinfida konfliktli vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali boshqarish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

"Muloqot darslari" tashkil etish:

Kelajak soatlarida o'qituvchi "Do'stlik qoidalari", "Qanday qilib kelishish mumkin?" kabi mavzularda interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish. Rolli o'yinlar orqali bolalarga konfliktli vaziyatlarni "o'ynab" (shu holatni ijro qilib) ko'rsatish va to'g'ri yechim topishni o'rgatish.

"Do'stlik burchagi"ni joriy etish:

Sinf xonasida maxsus joy ajratish, u yerda ikki o'rtog'i janjallashib qolgan o'quvchilar mustaqil ravishda joylashishadi va o'qituvchi ishtirokisiz o'zlari muammoni hal qilishga urinib ko'rishlari mumkin. Bu ularda mas'uliyat hissini, do'stona yechim topish ko'nikmalarini oshiradi.

"Men tasdiq, sen murojat" texnikasidan foydalanish:

O'quvchilarga o'z noroziliklarini ayblovsiz ifoda etishni o'rgatish ("Sen mening ruchkamni olding" o'rniga, "Ruchkamni olayotganingda men xafa bo'ldim, chunki u menga kerak edi" deyish). Bu muloqotni yumshatadi va ular o'rtasida to'g'ri muloqotni shakllantiradi.

"Emotsional yaqinlikni tiklash metodi (3 daqiqa usuli)"

Bu metoddan ikkita janjallashib qolgan o'quvchilarga o'qituvchi 3 daqiqa davomida quchoqlashib turishni aytadi. Bu vaqtda bolalar jiddiy turisholmaydi va kulib yuborishadi, o'rtadagi ziddiyat barham topadi. O'rtadagi muammo yechim topib bu holatni yaxshi tarafga o'zgartiradi.

Ijobiy muhitni mustahkamlash:

O'qituvchi o'quvchilarning yutuqlarini doimiy ravishda rag'batlantirish, raqobat muhitini emas, balki jamoaviylik ruhini shakllantirishi kerak.

Ushbu usullar sinfda sinovdan o'tkazish uchun samarali hisoblanib, amaliyotda qo'llanganda yaxshi natija berdi. Bolalar kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqot qilganda to'g'ri munosabatda bo'lishgani, jizzakilik, o'zaro kelishmovchilik kamaygani va ularning mustaqil kelishuvga erishish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Xulosa. Ta'lim jarayonida konfliktlar muqarrar bo'lgan hodisa. Biroq, ular ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun ularni to'g'ri boshqarish muhimdir. Ushbu maqolada 11-maktab 3-sinf o'quvchilari misolida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasidagi nizolarning aksariyati o'yinlar va shaxsiy buyumlar bilan bog'liq bo'lib, ular ko'pincha muloqot etishmasligi sababli yuzaga keladi.

Konfliktlarga konstruktiv yondashish, pedagog va o'quvchilar o'rtasida sog'lom muloqotni shakllantirish, o'quvchilarga murosaga kelish va muammolarni birgalikda hal etish ko'nikmalarini o'rgatish orqali ta'lim muhitini yanada qulay va samarali qilish mumkin. Pedagogning asosiy vazifasi nizoni jazolash emas, balki uni tarbiyaviy imkoniyat sifatida ishlatib, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Abdurahmonov F., Sharipov Sh. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Ismoilova Z.K. Pedagogik muloqot va nizolar psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Petrovskaya L.A. Kommunikativ kompetentlik va muloqot psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1989.
5. Johnson D. W., Johnson R. T. Boshlang'ich maktablarda konfliktlarni hal etish va tengdoshlar vositachiligi dasturlari. – Boston: Allyn & Bacon nashriyoti, 2014.
6. Z.SH.Qarshiyeva. Bo'lajak o'qituvchining reflektiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. (2023. № 12). 241–244-betlar . ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E)